

YO'LLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH VA MANZARALASHTIRISH BO'YICHA MUAMMOLARNING YECHIMLARI

Jamoliddin Usarov Tulqinovich

Jizzax politexnika instituti

Arxitekturaviy loyihlash katta o'qituvchisi

Usarovjamoliddin332@gmail.com

Abduqaxrorov Aziz Laziz o'g'li

Jizzax politexnika instituti Arxitektura yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734424>

Annotatsiya: Maqolada avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish tadbirlarining maqsadlari, daraxtlarning turlarini tanlashda daraxtlar shaklining odamlarga ruhiy ta'sir qilish xususiyatini hisobga olish, daraxt va butalarni joylashtirishda kommunikasiya va inshootlarni hisobga olish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avtomobil, yo'l, arxitektor, xarakatlanuvchi, loyihaviy, estetik, ko'kalamzorlashtirish, manzara, bog', landshaft, manzarali, yopiq, reja daraxtlar.

Abstract. Automobile, road, architect, moving, planned, aesthetic, landscaping, scenery, garden, landscape, scenic, landscape, plan.

Keywords: There are enlightened the action of planting of trees and shrubs of automobile roads, account of the nature of psychological influence on person of selecting forms of tree, account of positions of communication and buildings under the accommodation of trees and shrubbery.

Аннотация. В статье освещена сели мероприятий по озеленению автомобильных дорог, учет характера психологического воздействия на человека при подборе форм деревьев, учет положения коммуникаций и сооружений при размещении деревьев и кустарников.

Ключевые слова: Автомобиль, дорога, архитектор, движение, дизайн, эстетика, ландшафтный дизайн, декорации, сад, пейзаж, живописный, апамт, планировочный секрет.

Kirish. Inson hayoti davomida yerning barcha boyligi-ziynatlaridan foydalanar ekan, eng avvalo o'zini o'rab turgan tirik va sun'iy tabiatdan ehtiyojiga qarab, to'g'ri va oqilona foydalanishni bilishi shart. Shundagina inson omili yer planetasi uchun yaratuvchi sifatida haqqoniy o'rin tutadi.

Avtomobil yo'lini muhandislik-estetika nuqtai nazaridan tahlil etilganda uning obyekt sifatida funksiyasi va shakli o'rtasida bevosita mavjud bo'lgan uzluksiz aloqani ko'rishimiz mumkin. Bu haqda tarixning eng ko'zga ko'ringan arxitektorlari fransiyalik Le Korbyuze va Amerikalik Luis Sallivanlar mos ravishda ta'rif berganlar:


- "Avtomobil yo'li - yashash uchun xarakatlanuvchi uydir".
- "Avtomobil yo'lida shakl funksiya izidan boradi".

Albatta avtomobil harakatining texnologiyasi hozirgi yo'llarning kelib chiqishidan asiy rolni o'taganligi yo'llarning ajralmas sifatleri bo'lgan loyihaviy qarordan tortib uning necha yilga chidashi haqidagi malumotlardan ham ko'rinib turadi. Bu esa o'z navbatida yo'lning texnologik va estetik sifatleri o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini isbotlaydi. Avtomobil yo'lining taraqqiyot faoliyati odatda

Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish tadbirlari asosan quyidagi maqsadlarni ko'zlagan holda tashkillashtiriladi:


- *texnik maqsad* – qorni ushlab qolish, eroziyaga qarshi tadbirlar(o'yilma, jarlik nishabliklarini mustahkamlash, qumloqlar, o'pirilishlarni qotirish), ko'chki xavfi bo'lgan qismlarda qorni tutib qolish, tuproqning zaxini qochirish;
- *harakat xavfsizligi va ko'rish orentirini olishni ta'minlash maqsadi* – optik trassalashtirish uchun orentir tizimlarini yaratish, haydovchilarning diqqatini alohida tortuvchi joylar haqida ogohlantirish, yon shamol, qarama – qarshi avtomobillar farlaridan ko'zning qamashishidan himoya, to'siq qurilmalarini qisman almashtirish yoki kuchaytirish;
- *sanitariya – gigiyenik maqsad* – dam olish joylari va xizmat ko'rsatish komplekslari maydonlari mikroiklimini yaxshilash, yo'l chetidagi to'xtash joylari va dam olish joylarini shovqindan, changdan va zararli gazlardan himoya qilish;
- *arxitekturaviy – landshaftli va estetik maqsad* – yo'ning yagona uslubini shakllantirish – dominanta tizimini yaratish, mavjud landshaftni yaxshilash, mavjud kompozitsiyani ta'kidlash, yagona fonni yaratish, noestetiklik joylarni bezatish, idrok qilish va yo'lni joyning landshafti bilan muvofiqlashtirish uchun hududlarni qismlarga ajratish.

Ilmiy uslub. Mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, yo'l bo'yi ekinlaridan bir qancha vazifalarni bajarish uchun foydalanishga harakat qilish lozim. Yo'lni ko'kalamzorlashtirishning barcha ishlari "Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bo'yicha yo'riqnoma (MShN 33-2008)" ga muvofiq bajarilishi lozim.




Avtomobil yo'llarini manzarali ko'kalamzorlashtirishga misollar:


1- rasm. Tartibli usul: a- bargli daraxtlar; b – aralash daraxtlar.



2 – rasm. Manzarali daraxtlarni monoton himoyaviy o'rmon polosalari ortida tartibli joylashtirishga misol: 1 – himoya polosasi; 2 – manzarali aksent; 3 – boshqa.



3 – rasm. Avtomobil yo'llarini landshaft-guruxli usulda manzarali ko'kalamzorlashtirish.



4 – rasm. Daraxt va butalarni monoton daraxtli ekish ortida landshaft-guruxli joylashtirish

Ilmiy natija. Yo'llarni daraxtlar va butalar bilan ko'kalamzorlashtirish mahalliy tuproq va iqlimiy sharoitlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Daraxtlarning turlarini tanlashda daraxtlar shaklining odamlarga ruhiy ta'sir qilish xususiyatini hisobga olish lozim.

Yo'llarni ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan daraxtlar va butalar yetilgan holatidagi balandligi bo'yicha quyidagi toifalarga bo'linadi:

- *daraxtlar* - birinchi toifali – 24 – 30 m va yuqori; ikkinchi toifali – 10 – 20 m; uchinchi toifali – 10 m;
- *butalar* - birinchi toifa – 2 m dan yuqori; ikkinchi – 2 m dan past (ikkinchi toifali butalar o'z navbatida past – 1 m dan baland bo'lmagan, baland – 1 m dan 2 m gacha turlariga bo'linadi).

Yaproqli daraxt turlarini (terak, zarang va boshq) ularning xazonrezlik davri qoplamalarning maksimal sirpanchiq davri bilan to'g'ri kelishi, tushgan barglarning qoplama bilan bir bo'lib qolishini bartaraf qilish uchun yo'l o'tish qismining chetidan 50 m dan kam bo'lmagan masofada joylashishi lozim.

Daraxt va butalarni joylashtirishda kommunikasiya va inshootlarning joylashishini hisobga olish lozim.

Daraxtlarning tepasidagi shox – bargdan elektruzatgich havo liniya (HL) simlarigacha gorizont bo'yicha masofa kamida quyidagicha bo'lishi kerak:

- 20 kV gacha HL uchun.....2 m
- 35 – 110 kV gacha HL uchun.....3 m
- 150 – 220 kV gacha HL uchun.....4 m

- 330 – 500 kV gacha HL uchun..... 5 m

Landshaft-guruxli (yoki erkin) usul daraxt va butalarni aloxida element ko'rinishida va har xil o'lchamdagi guruhlarini erkin (tasviriy) joylashtirish ko'zda tutiladi. Bu usul asosan yo'lning adirli yoki to'liqin relyefli territoriyalaridan o'tgan joylarda qo'llaniladi.

Munozara: Yo'llarning manzarali ko'kalamzorlashtirish o'simliklarni tartibli va landshaft – guruhli ekishni tashkil etish hisoblanadi. Ularni bir tekis relyefli tumanlarda qo'llaniladi. Bunda asosan quyidagi ko'rinishlar qo'llaniladi: tartibli ekilgan qatorlarda landshaftli guruhlarini notekis joylashtirish; tartibli ekinlar va yo'l orasidagi (qatorli ekish ortida) erkin tasmada aloxida turlarni va landshaftli guruhlarini notekis joylashtirish; landshaftli guruhlarini tartibli ekinlarni yo'l bilan kesishgan joylarda, tushish-chiqishlarda, daryo, jarliklar va boshqalar kesishgan joylarda joylashtirish.

Manzara samarasi va daraxtlarni erkin rivojlanish uchun o'tqazilgan daraxtning kattaligiga bog'liq xolda qatorlar va daraxtlar orasidagi masofa 5 m dan 20 m gacha qabul qilinadi. Yosh ko'chatlarni ekishda ularda manzarani tezroq rivojlantirish uchun daraxtlar va qatorlar orasidagi masofa kichikroq (maskimal masofadan 2-4 marta kam) qabul qilinadi.

Maxsus turdagi ekinlar avtomobil yo'larini ajratuvchi tasmalarini ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi. Bu ko'kalamzorlashtirish turi yo'llarni arxitektura-tasviriy bezatishdan tashqari harakat havfsizligini oshirishda ham qo'llaniladi. Qoida bo'yicha ajratuvchi tasmaga bir biridan 20-30 m, yo'l chetidan esa kamida 1,75 m masofada joylashuvchi to'liq buta yoki ko'ndalang tasma (tirik bir yoki ikki qatorli devor) ko'rinishida ekish amalga oshiriladi. Bunday ko'chatlar qarama-qarshidan kelayotgan avtomobillarni yoritish chiroqlari nurlaridan saqlaydi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda har qanday yangi qurilgan yo'l eng avvalo atrof muhitining tabiiyligiga o'zining aks ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa yo'l muhitida joylashgan tabiiy landshaftning yo'qolishiga olib keladi. Shuningdek o'simlik dunyosining yo'qolishiga, hayvonot dunyosi muhitining buzilishiga, qolaversa tuproq hosildorligining kamayishiga, havoning ifloslanishiga, yer osti va yer usti suvlari balansining buzilishiga olib keladi.

Yo'l landshaft ko'rinishdagi tabiiy muxitda yaratilgan yangi sun'iy obyekt qurilmasi va muhitning ajralmas qismi sifatida tavsiflanadi. Shuning uchun ham yo'lning landshaftli loyihasida tabiat muhitini iloji boricha asl holatida asrab qolish, yoki bo'lamasa kamroq o'zgashtirish kiritib integrasiya yo'nalishini buzmasdan, hamda tabiatning yo'qotilgan omillari o'rniga yangi, oldingisidan ham ko'rkamroq omillarni qo'llash yo'l arxitektoralarining kasbiy masulyatini belgilaydi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. MShN 33-2008. "Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bo'yicha yo'riqnoma". T. 2008.
2. Ukazaniya po arxitekturno – lanshaftnomu proyektirovaniyu avtomobilnyx dorog. VSN 18-84. Minavtodor. Moskva «Transport» 1985.
3. Sardarov A.S. Arxitektura avtomobilnyx dorog. 2-ye izd., pre rab., i dop. M. Transport, 1993, 272 str.

4. Lobanov Ye.M. Proyektirovaniye dorog i organizatsiya dvijeniye s uchetom psixofiziologii voditelya. M.1980.
5. Pardayev O.N. "Transport inshootlar arxitekturasi" fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent, TAYI, 2007.
6. Krijanovskaya N.YA. Osnovy landshaftnogo dizayna. Rostov-na-Donu. «Feniks». 2005.
7. B.B. Mustaev., F.S. Boboeva. O'quv uslubiy majmua //Landshaft kompozitsiyasi va floristika. SamDAQI. 2018. -52, 65 b.
8. T. Knyazeva, D. Knyazeva. Komnatnye rasteniya.–Moskva, 2010.
9. Baron Emouf. L'art des jardins. 3-e éd.
10. Mangin A. Histoire des jardins anciens et modernes. 1887.
11. <https://www.gvozdem.ru/remont-stroyka/ozelenenie-kafe-i-restoranov/>
12. <https://m-strana.ru/design/rasteniya-v-interyere-pravila-vybora-modnye-tendentsii-idei-oformleniya-doma/>
13. [https://jn-home.ru/2 Fitogesign/Osnova fitodezign/index.html](https://jn-home.ru/2-Fitogesign/Osnova-fitodezign/index.html)

